

# Timur Rodrigez Uzbekistan Airways mehmoni

**2024 27 May**

Aviakompaniyaning Toshkentdagi bosh ofisiga do'stona tashrifi chog'ida rossiyalik teleboshlovchi aviakompaniya rahbariyati va xodimlari bilan uchrashdi, shuningdek, Moskvadan Toshkentga bo'lgan parvozi haqidagi ijobiy taassurotlari bilan o'rtoqlashdi.

"Xizmat ko'rsatish va sharqona mehmondo'stlik, taomlar va qulaylik meni hayratda qoldirdi."

Timur Rodrigez Parvozlarni boshqarish markazi bilan tanishdi va markaz xodimlari unga u Toshkentga uchib kelgan havo kemasi qanday kuzatilganini aytib berishdi.

Uchrashuv qanday o'tganini fotolavhalarimizda tomosha qiling.













